



**15-16 APREL  
2022**

**TOSHKENT  
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR  
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI**

**“TADQIQOT.UZ”  
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:  
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH  
ISTIQBOLLARI**

**II  
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA  
MATERIALLARI**

**TO‘PLAMI**

**Toshkent - 2023**

**Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:**  
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

**Tahrir kengashi:**

g.f.d., professor Hikmatov F.H.  
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.  
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

**Kengash a'zolari:**

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.  
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.  
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.  
PhD, dotsent Prenov Sh.M.  
PhD, dotsent Raxmonov D.N.  
PhD, dotsent Raxmonov K.R.  
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

**Mas'ul muharrir:**

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7505080>

## JIZZAX VILOYATI BAXMAL TUMANINING LANDSHAFTLARIGA TAVSIF

**Sindorov Murodilla Erkin o‘g‘li**

magistrant

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

e-mail: [murodillasindorov@gmail.com](mailto:murodillasindorov@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada Jizzax viloyati Baxmal tumani landshaftiga tavsif berilgan. Baxmal tumanida joy, urochishe va fatsiyalarning barpo bo‘lishiga baho berilgan. Landshaftga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

**Tayanch so‘zlar:** geologik tuzilishi, joy, urochishe, fatsiya, relyefi, iqlimi, suvi, o‘simlik va hayvonot olami.

## DESCRIPTION OF LANDSCAPES OF BAKHMAL DISTRICT OF JIZZAKH REGION

**Sindorov Murodilla**

**Annotation:** The article describes the landscape of Bakhmal district of Jizzakh region. In Bakhmal district, the construction of trocts of places and large geosystems has been assessed. Information on factors affecting the landscape is provided.

**Keywords:** geological structure, trocts, places, large geosystems, relief, climate, water, flora and fauna.

Landshaft – geologik tuzulishi, relyef, iqlim hamda faqat shu landshaftga xos bo‘lgan, o‘zaro bog‘liq kichik geotizimlar yig‘indisidan iborat genetik jihatdan bir butun geotizimdir.

Geotizimlarning kata-kichikligiga qarab sayyoraviy, regional va topologik jarayonlarga ajratishimiz mumkin. O‘rganilayotgan obyekt Baxmal tumani landshaftlariga tavsif bo‘lganligi sababli yuqoridagi uchta jarayonlardan faqat bittasini, ya‘ni topologikdan foydalanish joizdir. Topologik ko‘lamdagi geotizim o‘z navbatida landshaft, joy, urochishe va fatsiyaga ajratib o‘rganishimiz mumkin. Topologik tabiiy komplekslarni umumlashtiruvchi tushunchaga: geologik tuzulish, relyefi, iqlimi, tuproqlari, o‘simlik, hayvonot va suvlari.

Baxmal tumanida tomezazoy yoshidagi tog‘ jinslardan tuzilgan tog‘ tepaliklar hamda resurslari baholanmagan balandliklar va tog‘ osti suvli majmualari mavjuddir. Poleozoyning xilma-xil slaneslari, qumtosh-ohaktoshlari, kembriy davridan devon davrigacha vujutga kelgan yotqiziqlar, ba‘zan mezozoy va kaynozoy jinslar



ko'pchilikni tashkil etadi. Ba'zi bir hududlarda yotqiziqslarning yuzasini ohaktoshlar qoplab olgan. Daryo vodiylari ayrimlari to'rtlamchi davrning shag'al aralash alluvial-prolyuvial yotqiziqslari, soylarning yuqori tomonlari qor-muz yotqiziqslari qoplab yotibdi. Slanes va qumtoshlar silliq relyef shakillarini hosil qiladi [7,117-b.].

Baxmal tumanida Turkiston tizmasining shimoli-g'arbidan Morguzor tog'lari ajralib chiqib, Sangzor daryosigacha davom etadi. Tog'ning yonbag'irlari qiya, shimoli-sharqiy yonbag'irlarida baland tekisliklar va adirlar mavjud. Tog'ning yuqori qismi qoyali bo'lib, o'rtacha balandligi 1500-2000 m tashkil etadi. Eng baland nuqtasi 2621 m ga yetadi. Chumqor tog'i Turkiston tizmasining g'arbida joylashgan bo'lib, sharqdan g'arbga tomon cho'zilgan. U ikkala daryo Sangzor va Zarafshon daryolari orasida suvayirg'ich bo'lib, shimoliy tarafi tuman hududiga qaraydi. Morguzor bilan Chumqor tog'lari orasidagi tektonik botiqda Sangzor vodiysi vujudga kelgan. Vodiyan dastlab, sharqdan g'arbga va shimoli-g'arbga Sangzor daryosi oqadi. Vodiyning kengligi g'arbida 17 km ni, sharqqa tomon 5-6 km torayib boradi. Mutloq balandligi g'arbida 700-800 m ni, sharqida 1700-2300 m ni tashkil etadi. Sangzor vodiysining tog' yonbag'irlarida o'rta pleytotsenning to'lqinsimon va tepali allyuvial-prolyuvial tekisliklari bor [1, 56-b.].

Baxmal hududi kontinental iqlimli bo'lib, yozi quruq va issiq, qishi u qadar sovuq bo'lmaydi. Havoning o'rtacha ko'p yillik harorati  $+12,8^{\circ}\text{C}$  ni tashkil etsa, yanvarning o'rtacha harorati  $-3,7^{\circ}\text{C}$  ga teng bo'lib, mutloq minimal harorat  $-14,8^{\circ}\text{C}$  gacha pasayadi. Eng issiq oy iyul oyi bo'lib, o'rtacha oylik harorat  $+27^{\circ}\text{C}$ , tog'li qismida  $+15^{\circ}\text{C}$  va mutloq maksimal harorat  $+42^{\circ}\text{C}$  ga teng. Havoning o'rtacha yillik nisbiy namligi 46% ga tengdir. Hududning o'rtacha yillik yog'in miqdori 300-700 mm ni, tog'larning havo massalariga qaragan g'arbiy yonbag'irlarida 600-700 mm, uning teskari qismlarida va berk botiqli hududlarida 250-354 mm yog'in tushadi. O'lka hududida yog'inlarning ko'p qismi bahor (41-48%) va qish oylariga (34-43%) va kam qismi yoz oylariga (2-5%) to'g'ri keladi. Tumanda sharqiy, janubi-sharqiy va shimoli-g'arbiy yo'nalishdagi tog'-vodiy shamollari hukmronlik qiladi. Shamolning eng kichik tezligi janubi-sharqiy va janubi-g'arbiy shamollarga tegishli bo'lib, tezligi 2,4 m/s bo'lib, yuqori tezligi 3,1 m/s ni tashkil etadi. Yil davomidagi o'rtacha tezlik 2,7 m/s ni tashkil etadi.

Tumanning yer osti va yer usti suvlarining shakillanishida joyning iqlimi, yer yuzasi va geografik tuzilishi kata ta'sir ko'rsatadi. Tumanning yer yuzasi va gidrologik xususiyatini inobatga olib, ikki qismga ajratish mumkin.

Birinchi, tog' qismi, ya'ni daryo suvlarini hosil qiluvchi hudud. Bu yerda qorlarning, muzlarning erishidan va yog'inlar tufayli daryolar va bir qancha soylar hosil bo'lishi.

Ikkinchi, tekislik qismi, ya'ni suv sarflanadigan hudud. Tog'larda hosil bo'ladigan suv resurslari tekislik tomon harakatlanib, bu yerda bug'lanishga,

ekinzorlarni sug'orishga, boshqa ehtiyojlariga va yer ostiga shimiladi. Viloyatdagi eng uzun va sersuv hisoblangan Sangzor daryosining havzasi shu yerda joylashgan bo'lib, uzunligi 123 km tashkil etadi. Sangzorga oqimi davomida chap tomondan 14 ta, o'ng tomondan esa 9 ta soylar kelib qo'shiladi. Sangzor daryosi Turkiston, Molguzar va Qo'yto'sh tog'laridan to'yinib, Baxmal, G'allarol, Forish va Jizzax tumanlaridagi qishloq xo'jaligi ekinlarini suv bilan ta'minlaydi. Jizzax shahri atrofida vodiya'dan chiqib, ikkiga bo'linadi. Bir qismi janubi-sharq tomonga Tuyoqli kanali orqali Jizzax suv omboriga kelib quyilsa, ikkinchi qismi esa Qili nomi bilan atalib, shimolga oqib Tuzkon ko'liga borib quyiladi [1, 58-b.].

Baxmal tumaning subnival landshaftlarida tog' och qo'ng'ir dasht tuproqlari uchraydi. Unda o'suvchi o'simliklarga esa tikanli yostiqsimon (exidna esparseti, akontolimmon urug'i turlari) va tikanli (Karrak urug'i turlari) o't o'simliklari turlarini uchratishimiz mumkin. O'rmon va siyrak o'rmon landshaftlarida uchratishimiz mumkin bo'lgan tuproqlarga tog' och qo'ng'ir dasht tuproqlari va tog' jigarrang tuproqlar. O'simliklardan bo'lsa yarimsharsimon archa o'simliklarning turlari hamda Zarafshon archasi turlarini ko'ramiz. Quruq dasht landshaftlarida bo'lsa tog' jigarrang, to'q tusli bo'z va to'q tusli qo'ng'ir tuproqlar, unda o'suvchi o't dasht o'simliklari (bug'doy, arpa jamoalari), bedaga-bug'doyiqli dash o'simlik turlari o'sadi [7, 99-b.].

Baxmal tumanidagi hayvonot dunyosi boshqa hududlardan unchalik farq qilmaydi. Uchratishimiz mumkin bo'lgan kemuruvchilardan qo'shoyoq va yumronqoziq, sudralib yuruvchilardan kaltakesak va ilon, sutemizuvchilardan esa kiyik, tog' takasi, olqor, bo'ri, tulki, qushlardan bo'lsa lochin, qirg'iy, burgut va kabilarni uchratishimiz mumkin.

Tabiiy komplekslarni baholashning ilmiy asoslari bilan shullangan olim L.I.Muxinaning (1973) fikricha, har qanday baholashning uch jihati aniq bo'lishi kerak deb aytib o'tgan.

Birinchidan, baholashning obykti, ya'ni nima baholanishi kerakligi.

Ikkinchidan, baholashning subyekti, ya'ni tabiiy komplekslar yoki landshaftlarni nima uchun va kim uchun baholayotganligi.

Uchunchidan, sharoit ham, ya'ni baholanayotgan vaqtdagi iqtisodiy geografik, sossial, tabiiy geografik, ilmiy-texnik kabilar hisobga olinishi [4,37-38-b]. Landshaftni baholashni qisqa qilib aytganda insonning ijtimoiy-iqtosodiy va kelajak avlod uchun tabiatni o'z holaticha saqlab qolishga harakat qilishdir.

Hozirgi vaqtda Jizzax viloyatining Zomin, Baxmal va Forish tumanlarida bog'dorchilik va chorvachilikni kengroq yo'lga qo'yish chora-tadbirlari ishlab chiqilib, keng qamrovli ishlar amalga oshmoqda. Bu esa landshaftlarning ko'rinishiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmasligi aniqdir. Baxmal tumani ko'p qismi lalmi dehqonchilikka asoslangan bo'lib, adirliklardan bug'doy va arpa yetishtiriladi. Yaylovlarida esa chorva mollari oziqlanadi. Davlat tomonidan ekilgan boshhoqli ekinlarni yig'ishtirib olgunga

qadar chorva mollari yaylovlarda yursa, yig'ilgandan so'ng adirlarga chorva mollari tushiriladi. Bu esa yaylovda o'sayotgan o'simliklar qayta tiklanib olishiga imkon yaratiladi. Lekin lalmi joylarga tomchilatish orqali yo'lga qo'yiladigan bog'dorchilik tufayli yangi fatsiya, urochishe va joylar shakillanadi. Yaylovda esa doimiy tur o'simliklari kamayib, chorva mollariga yaroqsiz o'simlik olami keng tarqalishi mumkin.

Hozirgi vaqtda bir chorva mol uchun 11 gektar yer to'g'ri kelgan bo'lsa, keyinchalik 13 gektarga to'g'ri kelib qoladi. Baholash shuni ko'rsatadiki, bog'dorchilik va chorvachilikni to'g'ri tashkil qilinmasa landshaft holati tubdan o'zgarishi, yaylovlarning qisqarishi va mahalliy aholi ishlatayotgan gurunt suvlaring sathi tushib ketishi kuzatiladi. Buning oqibatida mahalliy aholi noroziliklariga uchrashimiz mumkin. Bu holat hozirgi vaqtda Jadik va Tangatopdi qishloqlarida kuzatishimiz mumkin.

Landshaftga vertikal va garizantal tomonlardan ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy va antropogenni misol qilishimiz mumkin. Tabiiy jihatdan havo, o'simlik va tuproq qoplami, suvlar, tog' jinslari va geologik yotqiziqlar modda va energiya almashuvi natijasida bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi kuzatiladi. Antropogen jihatdan esa joy, urochishe va fatsiya ko'rinishlari o'zgaradi. Insoniyatga qulaylik qilish maqsadida avtomobil yo'llari qurilishi sun'iy fatsiya jarliklari yuzaga kelgan. Uzoq masofaga cho'zilgan asfalt yo'l esa urochishe va o'z navbatida joyni tashkil etmoqda. Tabiiy holatda bo'lsa komponentlar bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi, tarqalishi va tuzilishi uzviy aloqadorlikka egadir. Agar bir komponent ishtirok etmas ekan, modda va energiya almashuvi buzilishi mumkin.

**Xulosa.** Baxmal tumanida subnival, o'rmon va siyrak o'rmon hamda quruq dasht landshaftlari shakllanganini ko'rishimiz mumkin. Asosiy suv manbayi Sangzar daryosi ekanligi, suvi ma'lum maydonni sug'orishga sarflanishini bilishimiz mumkin. Inson ta'siri doirasida landshaft ko'rinishi, ya'ni fatsiya, urochishe va joyning maydoni o'zgarish holatini yuzaga keltirishimiz mumkin ekanligini anglab yetishimiz ko'zda tutilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ҳасанов И.А., Ғуломов П.Н., Қаюмов А.А. Ўзбекистон табиий географияси. - Тошкент. "Университет", 2010. – 100 б
2. Келесник С.В. Умумий ер билими қисқа курси. - Тошкент. "Ўқитувчи", 1966.- 266 б
3. Зокиров Ш.С. Ландшафтшунослик асослари. - Тошкент. "Университет", 1994. – 92 б
4. Зокиров Ш.С. Антропоген ва амалий ландшафтшунослик. - Тошкент. "Университет", 1998. – 68 б
5. Зокиров Ш.С. Кичик худудлар табиий географияси. - Тошкент. "Университет", 1999. – 120 б

6. Sharipov Sh.M., Allaberdiev R.X., Kuchkarov N.Y., Ro‘zimova X.K.. – Toshkent. “Universitet”, 2017. – 144 b
7. O‘zbekiston Respublikasining geologik xaritalari ATLASI. Toshkent. 2016.- 134b